TOSHKENT VILOYATI OQQO'RG'ON TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 14 - fevral 42-10-133-Q/22 Oqqo‘rg‘on tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi PQ–44-son qarori ijrosini tashkil etish to‘g‘risida

Elektr energiyasini ishlab chiqarishda mamlakatimizdagi tabiiy va sun’iy suv oqimlarining mavjud gidrosalohiyatidan va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirish, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda shu asosda yangi ekologik toza energiya hosil qiluvchi quvvatlarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi “Gidroenergetikani yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ–44-son qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 31-yanvardagi 23-10-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori bilan gidroenergetikani yanada rivojlantirish, mavjud gidrosalohiyatdan unumli foydalanishning quyidagi asosiy muhim yo‘nalishlari belgilanligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyatining 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturiga kiritilgan va 2022–2026-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

2024–2030-yillarda mavjud gidrosalohiyatdan foydalanish darajasini oshirish, gidroelektr stansiyalari yangi quvvatlarini yaratish va mavjudlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

xususiy sektor ishtirokida kichik gidroelektr stansiyalarini qurish taklif etilayotgan loyihalar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

2022–2025-yillarda kooperatsiya asosida mahalliylashtirish uchun taklif etilayotgan kichik gidroelektr stansiyalarini qurish va ulardan foydalanish uchun zarur asbob-uskunalar,

butlovchi va ehtiyot qismlar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari, investitsiyalar va tashqi savdo bo’limi (S.Xakimjonov) zimmasiga mazkur qarorda belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini qat’iy nazoratga olish, xalqaro moliya institutlari va tashkilotlardan jalb qilinayotgan mablag‘larning o‘z vaqtida o‘zlashtirilishini ta’minlash, shuningdek, salohiyatli investorlarni izlash hamda Dasturda belgilangan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish vazifasi yuklansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Xakimjonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Karimdjanov**